

2 mavzu: Aholi to'g'risida ma'lumotlar manbalari

Reja:

1. Aholi ro'yxatlari va uni o'tkazish tamoyillari
2. Aholining son va sifat hususiyatlari
3. Joriy statistik ma'lumotlar

Demografik jarayonlarni o'rganishda aholiga doir nashr etilgan raqamli ma'lumotlar, ilmiy manbalar, maxsus tadqiqot natijalaridan, ya'ni demografik ma'lumotlardan foydalaniladi. Demografik ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi tavsifga ega.

Birlamchi ma'lumotlar - demografik jarayonlar haqida to'plangan dastlabki statistik ma'lumotlar, jadvallarva maxsus ko'rsat kichlar. Ikkilamchi ma'lumotlar - bu birlamchi ma'lumotlar asosida olib borilgan ilmiy tahlil va hisob-kitoblardir.

Aholi haqidagi axborot tizimi barcha aholini qamrab oluvchi ikkita asosiy manbadan iborat bo'lib, bular aholi ro'yxatlari va tabiiy harakatning joriy qayd etilishini, shuningdek tanlama tadqiqot, aholi registrlari kabi qo'shimcha manbalarni o'z ichiga oladi.

Aholi ro'yxatlari va aholini joriy qayd etishdan olinadigan ma'lumotlarsiz demografik koeffitsientlarni hisoblab bo'lmaydi. Aytish joizki, bu koeffitsientning sur'ati joriy qayd etish bo'lsa, maxraji aholi ro'yxati yoki uning asosida olingan hisob-kitoblar bo'ladi.

Aholi ro'yxati - aholi haqidagi muhim axborot manbalaridan biri bo'lib. aholi soni va uning harakati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonidir. BMT ta'rifiga ko'ra. aholi ro'yxati — bu ma'lum vaqtda mamlakatda yoki uning cheklangan bir qismida yashovchi jami aholi haqidagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish. umumlashtirish, tahlil qilish va nashr etish jarayonidir.

Aholini dastlabki ro'yxatga olish qadimgi Gretsiya, Vavilon. Mesopotamiya, Rim, Xitoy, Yaponiya va Misrda o'tkazilgan. Lekin, bu aholi ro'yxatlarining maqsadi aholidan soliq yig'ish, ya'ni boj olish hamda harbiy maqsad uchun aholi

sonini aniqlash bo'lgan. Shuning uchun ham bu aholi ro'yxatlarida faqat erkaklar ro'yxatga olingan. Chunki, u paytlarda erkaklarning iqtisodiy o'zni yuqori bo'lgan, soliq to'lashda faqat erkaklar, ya'ni oila boshliqlari ishtirok etgan.

Eng qadimgi aholi ro'yxati eramizdan oldingi VI asrda (510 yilda) Rimda imperator Servi Tull davrida o'tkazilgan. Mazkur aholi ro'yxatida oila boshliqlari o'zi, oila a'zolari va mol-mulklari haqida ma'lumot bergan.

Aholi ro'yxati nafaqat aholi soni va uning demografik jihatlari (aholining yosh-jinsiy tarkibi, oilalar tarkibi), balki uning ijtimoiy- iqtisodiy ko'rsatkichlari, ya'ni aholining ma'lumotlilik darajasi, ish bilan bandligi, yashash uchun mablag' topish manbalariga doir ma'lumotlarni ham beradi. Aholi ro'yxati dasturiga hozirgi zamonda davlat boshqaruvi uchun muhim bo'lgan savollarni ham kiritish mumkin. Masalan, ish bilan bandlik va ishsizlik, aholining turmush sharoitlari, nogironlik va boshqalar.

Aholini ro'yxatga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ro'yxatga olish orasidagi davrda aholida yuz bergan o'zgarishlar haqidagi axborotga ega bo'lish hamda shu asosda hududlar bo'yicha aholi soni va tarkibiga baho berish;
- istiqboldagi hisob-kitoblar uchun zamin tayyorlash;
- mamlakat aholisining lahzali holatiga ega bo'lish.

Aholi ro'yxati natijalaridan nafaqat aholi soni va tarkibining istiqboldagi baholari va prognozlarini tuzishda, balki ro'yxatga olish davrlari o'rtasidagi aholi soniga doir hisob-kitoblarni amalga oshirishda ham foydalaniladi.

Aholini ro'yxatga olish davrida barcha ma'lumotlar ma'lum vaqt, ya'ni ro'yxatga olishning aniq vaqti uchun jamlanadi. Bu aniq bir kun, soat bo'lib, barcha jamlangan axborotni taqqoslash uchun shu vaqtga nisbatan olinadi. Shu vaqtga qadar o'lganlar va undan keyin tug'ilganlar ro'yxatda qayd etilmaydi, ro'yxat varaqasiga kiritilmaydi hamda aholi ro'yxatiga qo'shilmaydi. Shu sababdan ko'pchilik hollarda aholi ro'yxatini bir zumda tayyor bo'ladigan fotosurat bilan taqqoslaydilar. Odatda, aholini ro'yxatdan o'tkazish uchun aholi nisbatan kam

harakatlanadigan mavsum tanlanadi, ya'ni mehnat ta'tili, o'quvchilarning ta'tili, bayram kunlaridan tashqari vaqt olinadi.

Ro'yxatga olish sanasi - bu aholi ro'yxatining aniq vaqtdan boshlangan kundir. Aholini ro'yxatga olish muddatlari — bu aholi orasida yurib, so'rovlar o'tkaziladigan hamda varaqalar to'ldiriladigan davr mobaynidir.

Aholi ro'yxatlarini o'tkazish tamoyillari haqidagi tasawurlar asta-sekin vujudga kelgan. Aholini ro'yxatdan o'tkazishning ilmiy asoslari birinchi (1855 y., Bryussel) va ikkinchi (1972 y., Sankt- Peterburg) Xalqaro statistik kongresslar tavsiyalarida qayd etilgan. 1846 yilda Bryussel shahrida taniqli belgiyalik olim A.Ketle rahbarligida o'tkazilgan aholi ro'yxati zamonaviy turdagi dastlabki ro'yxat hisoblanadi. Mazkur ro'yxat o'tkazilishida ilk bor kritik vaqt tamoyili qo'llanilgan. O'sha davrda A.Ketle «ro'yxatda qayd etiladigan aholi toifasi» tushunchasini birinchi marta ilmiy iste'molga kiritgan.

Ma'lumki, ro'yxatga olish jarayonida to'rtta aholi toifasi ajratiladi:

- mavjud aholi - ro'yxatga olish vaqtida ma'lum hududda bo'lgan jami aholi, shu jumladan, vaqtinchalik vashab turgan aholi;
- doimiy aholi - ma'lum hududda ro'yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi. Shu bilan birga, vaqtinchalik safarga ketganlar ham doimiy aholiga kiritiladi. Doimiy yashash mezonini sifatida olti oyga teng davr olinadi. Doimiy aholiga quyidagilar kiradi: muntazam tarzda shu hududda yashovchilar, ular orasida 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatga ketganlar, o'qish yoki ishlash uchun kelib, 6 oy va undan ko'p muddat davomida mazkur hududda yashovchilar;
- vaqtinchalik yashovchilar - bu mazkur hududda doimiy yashab qolishni istamagan, lekin bu yerda ro'yxatga olish davrida bo'lgan aholi. Vaqtinchalik ketganlar - bu mazkur hududda doimiy yashaydigan, biroq ro'yxatga olish davrida u yerda bo'lmaganlar;
- yuridik (qayd etilgan) aholi. Unga muayyan hududda shu mamlakat qonunlariga ko'ra qayd etilgan aholi kiradi. Masalan, turar- joy bo'yicha ro'yxatda turuvchi aholi. Yuridik aholi soni doimiy yoki mavjud aholi soni bilan mos

kelmaydi, shuning uchun zamonaviy aholi ro'yxatlarida ushbu toifa juda kam hollarda qo'llaniladi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazishda aholi toifalaridan biri - yo mavjud, yo doimiy yoki ikkala toifasi ham bir vaqtning o'zida qo'llanilishi mumkin. Hududning mavjud va doimiy aholi soni bir-biridan keskin farq qilishi mumkin, ammo jamoat transporti tarmog'i, ulgurji savdo va h.k. aynan mavjud aholiga mo'ljallanishi lozim. Bu, ayniqsa, mavsumiy omil bo'lib, muhim ahamiyat kasb etuvchi hududlar uchun dolzarbdir. 1926- va 1939-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida mavjud aholi qayd etilib, keyingi aholi ro'yxatlarida ham mavjud, ham doimiy aholi ro'yxatga kiritilgan. Bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlarida faqat doimiy aholi ro'yxatga olinadi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazishda aniq vaqt va aholi toifalari bilan birga quyidagi asosiy tamoyillar ham e'tiborga olinadi:

- aholi ro'yxatining umumiylik tamoyili. Imkon qadar muayyan mamlakat hududida mavjud bo'lgan barcha fuqarolar, shuningdek, shu davlatga tegishli, biroq ayni vaqtda chet elda bo'lgan fuqarolarga oid ma'lumotlar yig'iladi. Aftidan, ushbu tamoyilga amal qilish murakkabdir, chunki aholi bir joyda turmaydi, odamlar oqimi muntazam ravishda mamlakat hududi bo'ylab harakatlanadi. Shunga qaramay, aholini ro'yxatdan o'tkazish uslubiyoti imkon qadar maksimal darajada ushbu tamoyilga amal qilishga yo'naltirilgan;
- shaxsiylik tamoyili. Aholi haqidagi ma'lumotlar ism-sharifga ko'ra, ya'ni har bir shaxsga doir jamlanadi;
- aholi ro'yxatini o'tkazishning muntazamlilik tamoyili. BMT tavsiyalariga ko'ra, aholi ro'yxati muntazam ravishda, 10 yilda bir martadan kam bo'lmagan muddatda o'tkazilishi lozim;
- o'z-o'zidan aniqlash tamoyili. Odatda, aholi haqidagi ma'lumotlar hujjatlardan emas, balki odamlarning so'zlaridan

32

olinadi. Farzandlarga tegishli axborotni ota-ona yoki vasiylar beradi. Ro'yxatga olinayotgan paytda aholining ayrim jihatlari, ya'ni ba'zi savollarga javobni

faqatgina so'ralayotgan shaxs so'zlaridan olish mumkin (masalan, etnik mansubligi, ona tili va h.k.).

Garchi aholi ro'yxati o'tkazilganda ma'lumotlar har bir fuqaro haqida to'plansa ham, ro'yxatning qayd etish birligi sifatida oila yoki uy xo'jaligi olinadi. Ushbu tamoyil aholining oilaviy tarkibi yoki uy xo'jaligi bo'yicha taqsimlanishiga oid axborotga ega bo'lish imkonini beradi. Statistika oila - bu qarindoshlik (ota-ona - farzandlar, aka-uka, opa-singillar) yoki bir xususiyat (er-xotin, kuyov-qaynona/qaynota, kelin-qaynona/qaynota) ga ko'ra birlashgan, birgalikda yashovchi yoki umumiy budjetga ega bo'lgan shaxslarguruhidir. Oiladan farqli ravishda, uy xo'jaligiga birlashgan insonlar qarindoshlik yoki bir xususiyat bilan bog'lanmasliklari mumkin (masalan, yotoqxonada bir xonada yashab, umumiy xo'jalik yurituvchi), uning tarkibida xizmatkorlar bo'lishi ham kuzatiladi. Oiladan farqli o'laroq, uy xo'jaligi bir odamdan iborat bo'lishi mumkin. Oilaviy uy xo'jaligi va jamoaviy uy xo'jaliklari bir-biridan farqlanadi (masalan, qariyalar uyida yashovchilar, harbiy qism «aholisi»). Ayrim mamlakatlarda tanlama ro'yxatga olish savollari ham qo'llanilib, unda savollar barcha aholiga emas, balki uning ma'lum qismiga beriladi. Tanlama ro'yxatning o'tkazilishi unga sarflandigan xarajatlarni qisqartiradi, chunki savollar butun aholiga berilmaydi, biroq o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolar batafsil tadqiq etiladi.

2. Aholining son va sifat hususiyatlari

Demografik ro'yxatdan o'tkazish dasturini quyidagi bir nechta guruhlariga ajratish mumkin.

- 1. Aholi toifalarini hisobga olishni ko'zlovchi masalalar.** Amaliyotda, buning uchun ro'yxatga olishning kritik momentiga berilgan xonadonda kim yashaganligi, jumladan, yashashning doimiy yoki vaqtinchalik tavsifi aniqlanadi. Bundan tashqari, doimiy yashovchilar ichidan vaqtinchalik yo'qlar ham inobatga olinadi. Yashash tavsifini yanada aniqlashtirish uchun vaqtinchalik yo'q bo'lish davomiyligi yoki vaqtinchalik yashash sabablari xususida savollar qo'yiladi. Chunki, aksariyat odamlar hisobchilar bilan doimiy yashash joyida uchrashadi va ro'yxatga o'tkazishning kritik momentida (ayni vaqtda) mavjud bo'lganliklari

uchun vaqtinchalik yo'qligi yoki vaqtinchalik yashayotganligi to'g'risidagi dalilni inobatga olishning o'zigina kifoya qiladi, xolos. Masalan, 1989 yildagi ro'yxatga olishda aynan shunday qilingan edi. Yashovchilar ro'yxatidagi doimiy yashovchilar, lekin vaqtincha yo'qlar uchun uydagi bo'lmaganligining davomiyligi va sababi yozib qo'yilgan, vaqtinchalik yashovchilar uchun esa doimiy yashash joyi va u yerda bo'lishining davomiyligi yozib qo'yilgan. Varaqalarning o'zlarida esa «vaqtinchalik yo'q» yoki «vaqtincha yashaydi» deb belgilab qo'yilgan. Agar bu belgilarning birinchisi bo'lmasa ushbu odam mavjud odamlar tarkibiga kirishini, agar ikkinchisi bo'lmasa doimiy yashovchilar soniga kirishini, agar ikkalovi ham bo'lmasa, unda ushbu odam ro'yxatga qo'yilgan joyidagi aholining mavjud odamlar tarkibiga va doimiy yashovchilari tarkibiga kiritilgan.

2. Shaxsiy (demografik) tavsiflar - jins, yosh, nikoh holati.

So'raluvchining jinsi to'g'risidagi savol alohida tushuntirishlarni talab etmaydi. Ushbu savol barcha ro'yxatga olish dasturlaridan chiqarilib tashlanadi. Aholini jinsi bo'yicha tarkibi aholining takror barpo bo'lishini, mehnat resurslarini va h.k.larni o'rganishda juda muhim rol o'ynaydi.

Ro'yxatga olish dasturining eng muhim savollaridan biri - yosh to'g'risidagi savoldir. Aholini ro'yxatga olishda yoshi yoki tug'ilish sanasi to'g'risida savol qo'yilgan, chunki yosh uzluksiz alomat bo'lib, to'liq yillarning butun sanalari yozuvini o'zida aks ettiradi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalar uchun odatda hayotning oylar bo'yicha miqdori inobatga olinadi.

Yosh to'g'risidagi savol bir vaqtning o'zida juda mushkul masalalardan biridir. Gap shundaki, odamlar aniq yoshning o'rniga ko'pincha yaqin bo'lgan, yaxiitlangan yilHar sonini ko'rsatishadi. Natijada odamlarni yoshlar bo'yicha taqsimlayot- ganda yaxiitlangan yoshlarning to'planmasi vujudga keladi. Ushbu hodisa «yosh akkunmlyatsiyasi» deb yuritiladi. Yoshni noaniq ko'rsatishning asosiy sababi — aholini madaniy darajasining natijasidir. Bu yerda ro'yxatga olishda yillar sonini ko'rsatish o'rniga odamlarga o'zlarini oddiygina qilib uchta guruhlardan biriga kiritish so'raladi: bolalar, kattalar yoki qariyalar.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakati ming aksariyatida ko'pincha tug'ilgan sanasi to'g'risidagi savol qo'yiladi. Tug'ilgan sana ayrim demografik hisob-kitoblar uchun juda muhim, xususan, boshqa hodisalar bilan taqqoslash uchun ham muhimdir (farzandning tug'ilishi, nikohga kirish va h.k.). Tug'ilgan sanani bilgan holda ro'yxatga olish vaqtidagi aniq yoshni aniqlash mumkin, va holanki, to'lgan yillar soni to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'la turib tug'ilgan sanani aniqlashtirish mumkin emas.

Tug'ilgan sanani ro'yxatga olish yilidan tug'ilgan yilning sonini ayrib tashlab to'lgan yillarga aylantirish mumkin. Bunda, agar tug'ilgan sana ro'yxatga olish yilidagi uning sanasidan keyinroq bo'lsa, mavjud farqni birga kichraytirishga to'g'ri keladi. Shu bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha ishlardan qochish maqsadida ba'zida nafaqat tug'ilgan sana to'g'risidagi, balki to'lgan yillar soni to'g'risidagi savol ham qo'yiladi. Bizning mamlakatda barcha ro'yxatga olishlarda to'lgan yillar soni inobatga olingan (1 voshgacha bo'lgan bolalar uchun — oylar ko'rsatilgan); 1970, 1979 va 1989 yillarda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish dasturlarida tug'ilgan yil to'g'risidagi savol ham qo'yilgan. To'lgan yillar sonini to'g'ri aniqlash uchun hisobchi so'ralayotgan odani 17 yanvargacha, 17 yanvarda yoki bu sanadan keyinroq tug'ilganligini aniqlash va keyin mos ravishdagi belgini qo'yishi lozim. Agar odam 17 yanvargacha tug'ilgan bo'lsa, uning yoshi 1989 yil va tug'ilgan yil farqiga teng bo'ladi, agar 17 yanvardan keyin tug'ilgan bo'lsa, ushbu farq 1 ga kamroq bo'ladi.

Nikoh holati to'g'risidagi savol odatda o'zida to'rt javob variantini mujassam etadi: nikohdami; ro'yxatga olish vaqtida nikohda bo'lmaganlar uchun — hech qachon nikohda bo'lmagan; beva va ajrashgan. Ayrim mamlakatlarda, xususan AQSHda oila tarkibi tavsifini yanada aniqlashtirish uchun «bo'linganlar» (separated), ya'ni alohida yashovchi turmush o'rtoqlarga ajratilib, nikohda bo'lganlar orasida esa turmush o'rtog'i ushbu uy xo'jaligi yoki oila a'zolari tarkibiga kirmaydiganlarga ajratilib ko'rsatiladi.

Avvalambor, nikohda bo'lganlar deb kimlar atalishini aniqlashtirib olish juda muhim. Ko'pgina hollarda faktik nikoh munosabatlar mavjud qonunlar va

odatlarga ko'ra rasmiylashtirilgan yoki yo'qligidan qat'iy nazar inobatga olinadi. Ba'zan bu narsa yanada aniqlashtiriladi. Masalan, Meksikada nikoh fuqarolik yoki diniy ekanligi to'g'risida, Bolgariyada esa nikoh ro'yxatdan o'tkazilganligi haqida so'ralgan. Ushbu aniqlashlar ma'lumotlarni joriy hisob bilan qiyoslashni ta'minlashga bo'lgan intilishi natijasida amalga oshirilgan bo'lib, bunda nikohda tug'ilganlar deb faqat ota-onalari yuridik jihatdan ro'yxatdan o'tkazilgan hisoblanadi.

Shuningdek, kimlarni ajralishgan deb hisoblashni ham aniqlashtirib olish kerak. Faqatgina ro'yxatga olingan nikoh hisobga olinadigan holda masala oddiy hal qilinadi. Faktik nikohni hisobga olishda esa masala turmush o'rtog'i o'lib nikoh to'xtalishi sabab bo'lmagan.

1897 va 1926 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida nikoh holati to'g'risidagi savol, uning kengaytirilgan tavsifini nazarda tutgan. Biroq, keyingi uchta ro'yxatdan o'tkazishlarda (1939, 1959 va 1970 yillar) faqat nikohda turadimi yoki yo'qligi to'g'risida ko'rsatish so'ralgan. 1979 va 1989 yillardagi ro'yxatdan o'tkazishda nikoh holatining to'rtta toifasi hisobga olingan: hech qachon nikohda bo'lmaganlar; nikohda bo'lganlar; bevalar va ajrashganlar.

3. **Ijtimoiy-demografik tavsiflar.** Ro'yxatga olish dasturining ijtimoiy guruhlar va sinflarining miqdoriy nisbatlarini aniqlash imkonini beruvchi aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy kesimda aholini boshqa barcha tavsiflarining o'rganilishi masalalari, ya'ni ijtimoiy guruhlar va sinflar bo'yicha differentsatsiyalash birlamchi ahamiyat kasb etadi. Sinflar ishlab chiqarish vositalariga egaligi bo'yicha aniqlanadi. Bu holat rasmiy tarzda «ishdagi holat»ga tenglashtirilishi mumkin emas, ko'pincha rivojlangan mamlakatlardagi ro'yxatga olishlarda uchta toifa farqlanadi: xo'jayinlar, yollanma ishchilar, yordam beruvchi oila a'zolari. Rasman xo'jayin bo'lib yirik zavodning egasi va kichik hunarmand ham bo'lishi mumkin; yollanma ishchi bo'lib — doker va yirik firmaning direktori ham bo'lishi mumkin, mohiyatan, ko'pchilik hollarda uning xo'jayini bo'ladi; yordam beruvchi oila a'zolari bo'lib — fermerning xotini va monopolistning «ish o'rganayotgan» o'g'li bo'lishi ham mumkin. Aholi ro'yxatlarida ijtimoiy

guruhlarning bevosita ta'rifi berilib, unga ko'ra, ro'yxatdan o'tuvchi (agar u ishlayotgan bo'lsa), o'zining mavjud holatiga ko'ra, agar ishla- mayotgan bo'lsa, aytaylik pensionerlikka o'tgan bo'lsa, awalgisini yoki agar qaramog'ida bo'lgan kishi voyaga yetmagan bo'lsa, kimning qaramog'ida bo'lsa o'shaning holatiga asoslanib ko'rsatishi kerak va h.k.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dasturning ushbu qism masalalari shunday shakllantirilishi kerakki, bunda awalambor mash- g'ulotga ega bo'lgan, daromad keltiruvchi, mustaqil daromad ko'rish manbalariga ega bo'lgan va boshqa shaxslaming, davlatning yoki jamoat tashkilotlarining qaramog'ida bo'lgan odamlar guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'lsin. So'ngra ish bilan band bo'lganlarni iqtisodiyot tarmoqlari yoki ijtimoiy faoliyatning u yoki bu tarmog'iga taalluqligini ob'yektiv mashg'ulotlar bo'yicha ajratish zarur. Oddiygina qilib bunga ish joyi haqidagi savolni qo'yish yo'li bilan erishiladi. Ishlab chiqish jarayonida bandlar tarmoqlar bo'yicha korxonalar yoki muassasaning tavsifi asosida guruhlanadi. Bunda mustaqil ish joyi nima ekanligi haqida aniq ko'rsatmalar kiritilishi kerak. Ularsiz, masalan, zavodning bolalar bog'chasida ishlaydigan ishchilar ma'lum bir hollarda ushbu sanoat tarmog'i ishchilari tarkibida bo'lib qolishi (agar ishchilar o'z ish joyini zavod deb aytadigan bo'lsa), boshqa holda esa maorif ishchilari tarkibida bo'lib qolishi mumkin (agar ular o'zlarini bog'chaning ishchilari, deb hisoblaydigan bo'lsa). Shuningdek, shaxsiy funktsiyalar tavsifini ham aniqlab olish kerak, chunki ular ish joyi bo'yicha aniqlanmaydi: masalan slesar sanoatning istalgan tarmog'ida, qishloq xo'jaligida, uy xo'jaligida va h.k.larda band bo'lishi mumkin.

1989 yildagi ro'yxatdan o'tkazishda ijtimoiy-iqtisodiy tavsiflar quyidagi to'rt savol bilan aniqlangan:

1. Mavjud mablag' manbalariga ko'ra, ya'ni bu savolga so'ralayotgan shaxsdan korxonalar yoki muassasada, tomorqa xo'jaligida ishlashini ko'rsatishi yoki pensiya, nafaqa, stipendiya oladimi (davlat qaramog'ida) yoki xususiy shaxs qaramog'ida ekanligini ko'rsatishi talab qilingan.
2. Ish joyi (korxonalar, tashkilot, muassasa yoki xo'jalik nomi);

3. Ish joyi bo'yicha mashg'uloti, bunda lavozimi yoki bajaradigan mashg'uloti ko'rsatilgan;

4. Ijtimoiy guruhi, bu yerda quyidagi guruhlar ajratilgan: ishchi, xizmatchi, hunarmand, yakka tartibdagi dehqon, madaniyat xodimi va h.k.

Ko'pincha dasturning ko'rib chiqilayotgan qismida aholini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada aniqroq tavsiflash imkonini beruvchi savollar nazarda tutilgan, masalan, ikkinchi (yordamchi) mashg'uloti yoki avvalgi mashg'uloti (nogironlar va nafaqaxo'rlar uchun). Oxirgi vaqtlarda ro'yxatga olishda daromad miqdori haqida ham ma'lumotlar olishga bo'lgan harakatlar uchrab turibdi.

4. Ta'lim va savodxonlik. «Ta'lim» va «savodxonlik» tushunchasiga kiritiladigan ushbu savollarning ro'yxatga olish dasturiga kiritilishi, uning shakllantirilishi va mazmuni ko'p jihatdan aholining umumiy madaniy darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ro'yxatga olishda savodxonlikni o'rganish uchun nafaqat o'qiy olishlik, balki yoza olishlik haqida ham savol qo'yiladi. Birinchi talqin 1897 yildagi ro'yxatga olishda qo'llanilgan. 1926 yildagi ro'yxatga olishda ro'yxatga olinuvchi savodxonlik til bilishlik bilan birgalikda, o'qish va yozishni ham bilishi aniqlangan. Amaliy jihatdan savodsizlikni yo'q qilinishi bilan bog'liq holda 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillardagi ro'yxatga olishlarda savodxonlik xususidagi maxsus savol qo'yilmagan, u ta'lim xususidagi savolda inobatga olingan.

Barcha ro'yxatga olishlarda biron-bir tilda o'qiy olishligi savodlilik alomati hisoblangan, shuning uchun olingan materiallar qiyoslanishi mumkin edi - o'qiy olishligi ta'rifi deyarli o'zgarishlarga uchramadi. 1926 yilda esa hech bo'lmaganda bosma so'zlarni bo'g'inlab o'qiy olishligining o'zi yetarli bo'lgan; 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989 yillarda o'qiy olishlik talab qilingan, 1989 yildagi savodxonlik to'g'risidagi savol faqatgina 7 yosh va undan kattalarga berilgan.

1926 yildagi ro'yxatga olish dasturida ta'lim xususidagi savol mavjud bo'lmagan, keyingi ikkitasida esa so'ralayotgan shaxsdan o'rta yoki oliy maktabni tugatganmi yoki yo'qligi to'g'risida so'ralgan. 1959, 1970, 1979 va 1989 yillardagi

ro'yxatga olishlarda ta'limning kengaytirilgan tavsifi olingan bo'lib, unga ko'ra olingan ta'lim darajasini aniq ko'rsatishi talab etilgan.

Aholining ta'limi va savodxonligi tavsifini o'quv muassasiga borganligi to'g'risidagi savol yakunlangan. Birinchi marotaba u 1939 yildagi ro'yxatga olish dasturiga kiritilgan va boshqasi bilan birga berilgan: «Nechanchi sinfda yoki nechanchi kursda o'qiysiz?» 1959 yildagi ro'yxatga olishda o'quvchilarga muassasaning aniq nomi haqida savol kiritilgan bo'lib, 1970, 1979 va 1989 yillarda shaxs o'qiydigan muassasaning turi aniqlangan. Shu bilan birga, ro'yxatga olish dasturlari necha yil ta'lim olganligi to'g'risidagi savolni ham o'z ichiga olgan.

5. Etnik tavsiflar. Ushbu guruhga aholining milliy tarkibini aniqlashga yo'naltirilgan savollar kiradi. Bu, ayniqsa, ko'p millatli mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega, ular qatoriga O'zbekiston Respublikasi ham kiradi.

Aholining milliy tarkibini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan savollar O'zbekistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olishlarda asta-sekinlik bilan o'z aksini topgan. Millat (1926 yilda - xalq) bizning barcha ro'yxatga olishlarimizda hisobga olingan.

Etnik mansublik to'g'risidagi savollar ayrim shaxslar uchun shu bilan murakkablashadiki, bunda uning ta'rifini berish uchun faqatgina ma'lum bir «ob'yektiv alomatlar» yetarli bo'lmay qoladi. Frantsiyada yashaydigan va ishlaydigan italyan frantsuz millati bilan iqtisodiy va hududiy jihatdan bog'liq bo'lishga qaramay ko'pincha birdaniga frantsuz bo'lib qolmaydi, vaholanki, uning etnik mansubligi vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Shuning uchun u yoki bu millatga mansublik xususidagi mezonlar barcha ro'yxatdan o'tkazishlarda so'raluvchining o'zini anglashiga qaratilgan, ya'ni so'raluvchi o'zi ko'rsatgan millat turi yozib qo'yilgan. Bolalarning millatini ota-onalari ko'rsatishgan. Turli millatga mansub bo'lgan ota-onalar bolalarining millatini aniqlashda qiynalgan, shartli ravishda onasining millatiga ustuvorlik berilgan. 1926 yildagi ro'yxatga olish ko'rsatmalarida fuqarolikni millat bilan aralashtirmaslik haqida maxsus ogohlantirilgan.

Til millatning asosiy alomatlaridan biri bo'lganligi uchun ona tili haqidagi savolning qo'yilishi aholining milliy tarkibini tasavur qilishga yordani bergan. Bu

yerda ushbu tushunchaga aniq ta'rif berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili va so'zlashuv tili farqlanadi. Odatda, so'raluvchi ona tilini so'zlashuv tili bilan aralashtirib yuborishidan qochish uchun undan bolaligidan gaplashadigan tili haqida alohida ta'kidlangan va h.k. Aholining katta qismi uchun so'zlashuv tili ona tili bilan mos tushadi. Biroq, bundan tashqari holatlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, 1961 yildagi yugoslav ro'yxatga olishi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, sloveniyalikka turmushga chiqqan xorvat ayoli o'z ona tilini erining uyida sloveniya tilida so'zlashadigan bo'lsa ham serb-xorvat deb ko'rsatishi talab qilingan.

6. Aholining takror barpo bo'lishi. Oxirgi yillardagi ro'yxatga olishlarda aholining takror barpo bo'lishini o'rganishga taalluqli bo'lgan savollar ham keng yoyilib bormoqda. Ushbu savollar nikohga kirish sanasi haqidagi shaklda bo'lib ko'pincha birinchi nikoh to'g'risidagi sanani ajratib ko'rsatish, shu jumladan, uni tugatilishi sanasi (agar, u to'xtatilgan bo'lsa) haqidagi savollar ham kiritilib, ulardan nikoh davomiyligini hisoblash va nikoh- lilikning turli xil ko'rsatkichlarini aniqlash uchun ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan.

Ushbu savollar qatoriga ayol tomonidan dunvoga keltirilgan farzandlar sonini ko'rsatish yoki tirik tug'ilgan bolalar haqidagi savollarni kiritish mumkin. Bu savollar ko'pgina mamlakatlarning ro'yxatga olish dasturlariga kiritilgan. Ushbu savollar bo'yicha javoblardan tug'ilishni va uning istiqboldagi o'zgarishini o'rganish uchun zaair bo'lgan ma'lumotlar olish mumkin. Ayollarni ular tuqqan bolalar soni yoki ularda mavjud bo'lgan farzandlar bo'yicha taqsimlanishi bolalar uchun nafaqalarni to'lashni rjallashtirish va boshqa ijtimoiy masalalarni hal qilishda juda muhimdir. 1979 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish dasturida birinchi marta ayollar uchun ular tomonidan tuqqan bolalar to'g'risida savol qo'yilgan edi.

7. Migratsiya. Dasturning ushbu qismiga hozirgi va oldingi turar-joyidagi yashash davomiyligi, qochoqlar yoki ko'chirilgan shaxslar, qandaydir voqelar bilan bog'liq holda ko'chganlarning tarkibini o'rganish bilan bog'liq savollar kiritilgan.

Shu bilan birga, ro'yxatga olish dasturlariga urushda yoki harbiy xizmatda qatnashganlik, jismoniy va ruhiy nuqsonlar haqidagi savollar ham kiritilgan.

Aholini ro'yxatga olish dasturlarida yashash sharoitlari xususidagi savollar alohida ahamiyat kasb etadi. Ko'pincha yashash joyini ro'yxatga olish aholini ro'yxatga olish bilan birgalikda mustaqil olib boriladi. Bizning mamlakatimizdagi ro'yxatga olishlarda yashash sharoitlari faqat 1926 yildagi ro'yxatga olishda hisobga olingan va muzkur aholi ro'yxati da yashash sharoitlari haqidagi ma'lumotlar maxsus oila xaritasiga yozilgan.

3. Joriy statistik ma'lumotlar

Aholi tabiiy harakatining qayd etilishi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishga asoslanadi. Aholining tabiiy harakati, uning takror barpo bo'lishi bevosita (tug'ilish, o'lim) va bilvosita (nikoh, ajralish) ta'sir etuvchi demografik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Tabiiy harakat haqidagi axborot asosida mamlakat aholisining soni, tabiiy harakatining nisbiy ko'rsatkichlari hisoblanib, ular asosida aholi soni va tarkibining istiqboldagi prognozi amalga oshiriladi.

Demografik jarayonlarning muntazam statistik qayd etilishi aksariyat Yevropa mamlakatlarida XVIII asr oxirlarida tashkil etilgan. Rossiyada 1702-yili Petr I farmoniga ko'ra, Moskva shah- rida pravoslav aholisida o'lganlarga janoza o'qilishi majburiy o'tkazilgan, 1722-yildan esa cho'qintirish, janoza o'qish va nikohlash marosimlarini qayd etish kitoblari amal qila boshlagan. 1913-yildan shaharlarda o'lim sabablarini shifokorlar tomonidan majburiy qayd etish joriy qilinib, uning asosida o'lim sababi haqidagi qayd etish kitoblariga ma'lumotlar yozilgan. 1917-yili dekabrda fuqarolik nikohi, farzandlar, fuqarolik holatlarini qayd etish kitoblarini yuritish to'g'risida Dekret qabul qilingan. Unga ko'ra, barcha joylarda tug'ilgan, o'lgan, nikohlanganlarni qayd etuvchi bo'linmalar tashkil etilgan. 1940-yillar boshida tabiiy harakatni qayd etish ishlari butun mamlakat hududiga tarqalib, 1948-yildan boshlab qaydlarning to'liqligi muntazam tekshirila boshlangan.

Demografik jarayonlarni qayd etish, birinchi navbatda, ma'lum hodisaning huquqiy oqibatlari bilan bog'liq. Shu bois, u mamlakatning barcha aholisi uchun majburiy hisoblanadi.

Demografik jarayonlarni qayd etish muddatlari va tartibi har bir mamlakatning tegishii qonunlarida belgilanadi. Tug'ilishni qayd etish bolaning tug'ilganligi haqidagi tibbiy ma'lumotnoma, ota-onaning oilaviy holati va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi. O'lik tug'ilgan bolalar uch sutkadan kech bo'lmagan muddatda qayd etiladi. Tirik tug'ilish holati Butunjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tavsiyalaridan foydalangan holda qayd etilib, unda homiladorlik davomiyligidan qat'iy nazar homilani ona organizmidan to'liq chiqarib olinishi, bundan keyin go'dakning nafas olishi yoki hayotning boshqa belgilarini namoyon etishi: yurak urishi, kindikning pulsga ko'ra tebranishi, mushaklarning xolis harakati nazarda tutiladi. Bunday tug'ilishning har bir mahsuli tirik tug'ilgan bola sifatida qabul qilinadi. O'lik tug'ilish - bu homiladorlik muddatidan qat'iy nazar ona organizmidan homilani to'liq chiqarib olish, unda nafas olish yoki hayotning boshqa belgilarining yo'qligidir.

O'limni qayd etish marhumning yashash joyi yoki o'lim sodir bo'lgan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi. Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi sudning hal qiluv qaroriga asosan o'limni qayd etish mazkur qarorni chiqargan sud joylashgan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi. Hayotining birinchi haftasi davomida o'lgan bolalaming tug'ilganligi va o'limi tibbiy muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida qayd etiladi. O'limni fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd etmasdan marhumni dafn etish taqiqlanadi.

O'limni qayd etish uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga o'lim haqida tibbiy ma'lumotnoma yoki sudning fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi hal qiluv qarori, shuningdek, marhumning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etiladi.

Nikohni qayd etish nikohlanuvchi shaxslarning birining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi. Nikohlanuvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga nikoh qayd etilishidan bir oy ilgari nikohga kirish to'g'risida ariza beradilar. Nikohga kirishni Xohlovchilar ariza berish chog'ida o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni, ilgari nikohda bo'lgan shaxslar esa avvalgi nikoh tugatilganlig* haqida hujjatlarni ham taqdim etishi lozim.

Ajralishni qayd etish ham fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari orqali amalga oshiriladi. Er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda nikohdan ajralishda ariza beruvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga bergan arizalarida o'rtada voyaga yetmagan bolalari va mulkiy nizolari yo'qligini tasdiqlashlari shart.

Nikohdan ajralish ariza beruvchilarning yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarni (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish) joriy qayd etish fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari orqali amalga oshiriladi.

TAYANCH IBORALAR

Aholi ro'yxati, birlamchi ma'lumotlar, ikkilamchi ma'lumotlar, ro'yxatga olish sanasi, mavjud aholi, doimiy aholi, vaqtinchalik yashovchilar, yuridik (qayd etilgan) aholi, tug'ilishni qayd etish, o'limni qayd etish, nikoh, ajralish.

Nazorat va mulohaza uchun savollar:

1. Demografik ma'lumotlar deganda nimani tushunasiz?
2. Aholi to'g'risida axborot beruvchi manbalarni sanab bering.
3. «Aholi ro'yxati» tushunchasiga ta'rif bering.
4. Aholini ro'yxatga olishning asosiy vazifalarini aytib bering.
5. Aholini ro'yxatga olishda qanday usullardan foydalaniladi?
6. Tug'ilish va o'lim jarayonlarini qayd etish tartibini tushuntirib bering

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
2. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. O'zbekistonda 1987, 1926, 1939, 1959,1970,1979, va 1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari.
4. Abdalova Z.T., Tojjeva Z.N.Iqtisodiy geografiya. O'quv qo'llanma. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», - 2013. 212 bet.
5. Abdurahnmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.
6. Ata-Mirzaev O.B. Narodonaselenie Uzbekistana. – T., 2009.
7. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – T., 2002.
8. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N. Aholi geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.
9. Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
- 10.Bo'rieva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.,Universitet, 1997.-157 b.
- 11.Soliev A.S., Bo'rieva M.R va boshqalar. Qishloq joylar demografiyasi. – T., 2005. - 140 b.
12. Tojjeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.